MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYLLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH Suyunov Yorqin Bekturodovich	1206
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI Arifbayev Bobur Dilshodovich	1212
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» Аблаева Валентина Борисовна	1219
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT I. Imomov, F.Nishonov	1227
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ Шоев Алим Халмуратович	1234
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	1239
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	1239
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	1247
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	1251
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ Менглиева Индира Баходировна	1257
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ Умарбеков Бахром Ботирбекович	1261
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA) Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	1270



O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA “ALTERNATIVE RISK CAPITAL”NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)

Jorabaev Jasur Abduraxmanovich

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ Kuzatuv kengashi a'zosi

E-mail: jasurbekuz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston qayta sug'urta bozorida Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlarini joriy etishning iqtisodiy, institutsional va huquqiy asoslari kompleks tahlil qilingan. ARC'ning an'anaviy qayta sug'urta tizimini samarali to'ldiruvchi muqobil kapital manbai sifatidagi roli konseptual iqtisodiy model asosida asoslab berilgan. Ssenariyli empirik tahlil natijalari ARC instrumentlarini joriy etish bozor barqarorligini mustahkamlash hamda kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy baza tahlil qilinib, ARC'ni joriy etish va rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy takomillashtirishga qaratilgan aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: alternative risk capital, qayta sug'urta, insurance-linked securities, risk transferi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic, institutional, and legal foundations for the implementation of Alternative Risk Capital (ARC) instruments in Uzbekistan's reinsurance market. The role of ARC as an effective alternative source of capital complementing the traditional reinsurance system is substantiated through a conceptual economic model. The results of scenario-based empirical analysis demonstrate that the introduction of ARC instruments contributes to enhancing market stability and improving capital efficiency. Furthermore, the existing regulatory framework is examined, and specific policy-oriented recommendations are proposed to facilitate the implementation and development of ARC.

Key words: alternative risk capital, reinsurance, insurance-linked securities, risk transfer, financial stability.

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ экономических, институциональных и правовых основ внедрения инструментов Alternative Risk Capital (ARC) на рынке перестрахования Узбекистана. Роль ARC как эффективного альтернативного источника капитала, дополняющего традиционную систему перестрахования, обоснована на основе концептуальной экономической модели. Результаты сценарного эмпирического анализа свидетельствуют о том, что внедрение ARC способствует укреплению устойчивости рынка и повышению эффективности использования капитала. Кроме того, проведён анализ действующей нормативно-правовой базы и разработаны конкретные научно-практические предложения по её совершенствованию в целях внедрения и развития ARC.

Ключевые слова: alternative risk capital, перестрахование, insurance-linked securities, трансферт рисков, финансовая устойчивость.

KIRISH

So'nggi yillarda global sug'urta va qayta sug'urta bozorida katastrofik risklar chastotasining ortishi hamda yetkazilayotgan zarar hajmining kengayishi kuzatilmoqda. Iqlim o'zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, infratuzilma loyihalarining kengayishi va iqtisodiy aktivlar konsentratsiyasining o'sishi an'anaviy qayta sug'urta tizimi imkoniyatlariga sezilarli darajada yuklama bermoqda. Natijada yirik yo'qotishlardan so'ng qayta sug'urta kapitalining qisqarishi va stavkalarining o'sishi bozorning siklik o'zgaruvchanligini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



Mazkur sharoitda sug'urta risklarini kapital bozorlari mexanizmlari orqali moliyalashtirishga asoslangan Alternative Risk Capital (ARC) global amaliyotda muhim va samarali instrument sifatida shakllanmoqda¹. Shu bilan birga, ARC instrumentlari asosan rivojlangan moliyaviy bozorlarda chuqur o'rganilgan bo'lib, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan O'zbekiston sharoitida uni joriy etish va qo'llash masalalari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqola aynan mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga hamda ARC instrumentlarining milliy qayta sug'urta bozori uchun moslashuv imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda Alternative Risk Capital (ARC) sug'urta va qayta sug'urta risklarini kapital bozorlari mexanizmlari orqali investorlar zimmasiga o'tkazish imkonini beruvchi zamonaviy moliyaviy mexanizm sifatida talqin qilinadi². Tadqiqotlarda katastrofik obligatsiyalar, insurance-linked securities (ILS) hamda kollateralashtirilgan qayta sug'urta ARC'ning asosiy shakllari sifatida e'tirof etilib, ushbu instrumentlarning kapital manbalarini diversifikatsiya qilish va qayta sug'urta narxlarini barqarorlashtirishdagi roli asosan rivojlangan moliyaviy bozorlar misolida yoritilgan. Xususan, David Cummins (2014–yil)³ o'z tadqiqotlarida katastrofik risklar hamda riskka bog'langan qimmatli qog'ozlarning sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashdagi muhim rolini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan. Kenneth Froot (2001–yil) esa katastrofik risklar bozorining iqtisodiy modelini ishlab chiqib, kapital bozorlari orqali risklarni taqsimlash mexanizmlarini tizimli ravishda tahlil qilgan. Shuningdek, Swiss Re va OECD hisobotlarida ARC qayta sug'urta bozoriga qo'shimcha kapital jalb etish imkonini beruvchi samarali moliyaviy mexanizm sifatida baholanadi. Morton Lane (2018–yil) o'z tadqiqotlarida ILS bozorining rivojlanishi qayta sug'urta narxlari volatilligini pasaytirish hamda bozor barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini empirik dalillar asosida ko'rsatib bergan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanadi. Rivojlanayotgan bozorlar, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida ARC instrumentlarini joriy etish va qo'llash masalalari ilmiy jihatdan yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. O'zbekiston misolida ham ARC instrumentlarining iqtisodiy va institutsional imkoniyatlari hozirga qadar cheklangan darajada tadqiq etilgan bo'lib, mamlakat qayta sug'urta bozorida ARC'ni qo'llash istiqbollari tahlil qilish ushbu tadqiqotning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur kontekstda Alternative Risk Capital sug'urta va qayta sug'urta risklarini an'anaviy qayta sug'urta kompaniyalari balanslari orqali emas, balki kapital bozorlari ishtirokchilariga maxsus moliyaviy instrumentlar vositasida o'tkazishni ifodalovchi mexanizm sifatida qaraladi. ARC kapitalining asosiy xususiyatlari uning to'liq kollateralashtirilganligi hamda qayta sug'urta sikllariga nisbatan yuqori darajadagi mustaqilligi bilan tavsiflanadi⁴. Iqtisodiy nuqtai nazardan, ARC qayta sug'urta bozorida qo'shimcha kapital qatlamini shakllantirib, katastrofik risklarni kengroq moliyaviy baza doirasida taqsimlash imkonini yaratadi⁵. Bu esa qayta sug'urta bozorining barqarorligini mustahkamlash, shuningdek, uning uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlarini O'zbekiston qayta sug'urta bozoriga integratsiya qilish imkoniyatlarini baholash maqsadida ko'p bosqichli va kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, iqtisodiy modellashirish hamda institutsional baholash usullari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilib, ARC integratsiyasining iqtisodiy samaradorligi va amaliy ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilindi. Xususan, qiyosiy tahlil doirasida an'anaviy qayta sug'urta modeli va ARC asosidagi gibril arxitektura asosiy iqtisodiy mezonlar bo'yicha solishtirildi hamda risklarni ushlab qolish darajasi, qayta sug'urta stavkalari volatilligi, kapitaldan foydalanish samaradorligi, kontragent risklarining diversifikatsiyasi va tashqi bozorlarga qaramlik darajasi kabi omillar bo'yicha ARC integratsiyasining ustun jihatlari aniqlab berildi. Ushbu yondashuv an'anaviy modelga xos bo'lgan ayrim cheklovlarni aniqlash bilan birga, ARC instrumentlarining qayta sug'urta tizimini barqarorlashtirishdagi imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berdi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ssenariyli modellashirish usuli qo'llanilib, qayta sug'urta bozorida turli shok holatlari simulyatsiya qilindi. Bunda bir tomondan, faqat an'anaviy qayta sug'urta mexanizmlariga asoslangan model sharoitida katastrofik hodisalar yuz berganda kapital tanqisligi, stavkalarining keskin oshishi va moliyaviy resurslarning tashqi bozorlarga chiqib ketishi ehtimoli kuchayishi kuzatilishi, ikkinchi tomondan

1 Swiss Re. (2020). Insurance-linked securities market update.

2 Cummins, J.D., Barrieu, P. (2013). Reinsurance, securitization and risk transfer. Journal of Risk and Insurance.

3 Cummins, J.D. (2014). Catastrophe risk and reinsurance: A review of the issues. Risk Management and Insurance Review.

4 Guy Carpenter. (2022). The role of alternative capital in reinsurance.

5 Cummins, J.D., Weiss, M.A. (2009). Convergence of insurance and financial markets. Journal of Risk and Insurance, 76(3), 493–545.



esa ARC integratsiyasi joriy etilgan modelda katastrofik risklarning insurance-linked securities (ILS) orqali moliyalashtirilishi, narxlar tebranishining yumshashi hamda ichki kapitalni ushlab qolish darajasining oshishi ta'minlanishi aniqlangan. Modellashtrish natijalari ARC instrumentlari ishtirokida qayta sug'urta bozorining barqarorligi va moslashuvchanligi sezilarli darajada ortishini ko'rsatdi.

Mazkur natijalarga asoslanib, ARC'ni an'anaviy qayta sug'urta mexanizmlari va global kapital bozorlari o'rtasidagi oraliq institutsional qatlam sifatida joriy etishga asoslangan integratsiya modeli taklif etildi. Ushbu model doirasida birlamchi sug'urtachilar nisbatan kam zararli va barqaror risklarni o'z zimmasida saqlashi, o'rta darajadagi zararlar an'anaviy qayta sug'urta shartnomalari orqali qoplanishi, kam uchraydigan, biroq katta zararli risklar esa ARC instrumentlari orqali kapital bozorlari ishtirokchilariga o'tkazilishi nazarda tutiladi. Bunda institutsional investorlar qayta sug'urta sikllaridan nisbatan mustaqil bo'lgan, to'liq kollateralashtirilgan kapital manbai sifatida tizim barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Iqtisodiy modellashtrish bosqichida qayta sug'urta bozorining umumiy salohiyati jami sug'urta risklari hajmi, an'anaviy qayta sug'urta salohiyati va alternativ risk kapitali salohiyatining yig'indisi orqali ifodalandi. Mazkur yondashuv qayta sug'urta narxlarining barqarorligi sharti bilan bog'lab tahlil qilinib, ARC hajmining ortishi qayta sug'urta stavkalari volatilligini kamaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijada, ARC instrumentlarining integratsiyasi qayta sug'urta bozorida narx barqarorligini ta'minlash, kapital samaradorligini oshirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar O'zbekiston qayta sug'urta bozorining an'anaviy ravishda tashqi bozorlarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Risklarning salmoqli qismi xorijiy qayta sug'urta bozorlariga uzatilishi natijasida milliy sug'urta tizimi global qayta sug'urta sikllariga sezilarli darajada bog'lanib qolmoqda. Xususan, global miqyosda katastrofik hodisalar ko'paygan davrlarda, jumladan 2022–2023-yillarda sodir bo'lgan yirik tabiiy ofatlar sharoitida, qayta sug'urta stavkalarining keskin oshishi kuzatildi. Bunday vaziyatda nisbatan kichik va o'rta hajmdagi bozorlar, shu jumladan O'zbekiston qayta sug'urta bozori, kapital resurslarining cheklanishi bilan bog'liq xatarlar ta'siriga ko'proq duch keladi.

Mavjud an'anaviy qayta sug'urta arxitekturasida qator tizimli cheklolarga ega bo'lib, premiyalarning asosiy qismi xorijga yo'naltirilishi milliy moliyaviy resurslarning tashqariga chiqib ketishiga olib keladi, global qayta sug'urta sikllarining ichki bozorga uzatilishi esa narxlar volatilligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yirik katastrofik yo'qotishlarning asosiy qismi sug'urta kompaniyalari yoki davlat moliyasi balansiga tushishi risklarning yuqori darajada konsentratsiyalashuviga sabab bo'ladi hamda kapitaldan foydalanish samaradorligini cheklaydi. Mazkur holat moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan suveren risklarning kuchayishiga olib keluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Taklif etilayotgan gibrid model, ya'ni an'anaviy qayta sug'urta mexanizmlarining Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlari bilan uyg'unlashuvi risklarni sug'urta kompaniyalari balansidan kapital bozorlari mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga imkon yaratadi. ARC qatlami katastrofik risklarni institutsional investorlar kapitali orqali moliyalashtirishni ta'minlab, qayta sug'urta bozorida sifat jihatidan yangi iqtisodiy muvozanatni shakllantiradi. Mazkur yondashuv natijasida past va o'rta darajadagi risklar milliy bozorda saqlanib qoladi, kam uchraydigan, biroq katta zararli risklar esa kapital bozorlari ishtirokchilariga o'tkaziladi, bu esa kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ARC kapitalining an'anaviy qayta sug'urta sikllariga nisbatan past darajada bog'liqligi katastrofik yillarda ham bozorga qo'shimcha likvidlik kirib kelishini ta'minlaydi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, insurance-linked securities (ILS) bozori rivojlangan davrlarda qayta sug'urta stavkalari volatilligi pasayib, narx barqarorligi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ARC mexanizmlari orqali risklarning moliya bozorlari ishtirokchilari o'rtasida kengroq taqsimlanishi kontragent risklarining haddan tashqari konsentratsiyalashuvini kamaytiradi.

Natijada, ARC instrumentlarining O'zbekiston qayta sug'urta bozoriga integratsiyasi bir qator ijobiy makroiqtisodiy va mikroiktisodiy samaralarni shakllantiradi. Makroiqtisodiy darajada xorijga chiqib ketuvchi kapital hajmi qisqaradi⁶, sug'urta tizimining umumiy moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi hamda katastrofik hodisalar yuz bergan sharoitlarda davlat budjetiga tushadigan yuk kamayadi⁷. Mikroiktisodiy darajada esa sug'urta kompaniyalarining andarrayting salohiyati kengayadi⁸, kapitaldan foydalanish samaradorligi oshadi va kontragent risklarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi (1-jadval)⁹.

6 OECD. (2021). Disaster risk financing and insurance in emerging economies. Paris.

7 World Bank. (2019). Financial protection against natural disasters: An operational framework.

8 Bank for International Settlements (BIS). (2020). Macroprudential policy and the insurance sector.

9 Niehaus, G., Mann, S.V. (1992). The trading of underwriting risk. Journal of Risk and Insurance.



1-jadval. O'zbekiston qayta sug'urta bozorining ARC joriy etilgunga qadargi tuzilmasi (shartli model)

Ko'rsatkichlar	Holat (ARC yo'q)	Izoh
Ichki qayta sug'urta salohiyati	Past	Katta risklarni qoplash cheklangan
Xorijiy qayta sug'urta ulushi	Yuqori	Asosan xalqaro bozor hisobiga
Valyutada kapital chiqimi	Yuqori	Premiyalar chet elga chiqadi
Katastrofik risklar qoplanishi	Cheklangan	Davlat aralashuvi ehtimoli yuqori
Qayta sug'urta stavkalari	Volatil	Global sikllarga bog'liq
Bozor barqarorligi	Siklik	Katta yo'qotishdan keyin izdan chiqadi

Mazkur jadval O'zbekiston qayta sug'urta bozorining hozirgi bosqichda asosan an'anaviy mexanizmlarga tayanishi va tashqi qayta sug'urta bozorlariga yuqori darajada bog'liqligini aks ettiradi. Ushbu model sharoitida milliy qayta sug'urta salohiyatining nisbatan cheklanganligi sababli risklarning asosiy qismi xorijiy qayta sug'urta bozorlariga uzatiladi, bu esa valyuta resurslarining tashqariga chiqib ketishiga olib keladi. Shu bilan birga, katastrofik risklar institutsional darajada yetarlicha qoplanmagan bo'lib, qayta sug'urta narxlari global bozor sikllariga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Natijada, yirik yo'qotishlar yuz bergan holatlarda bozor qisqa muddatli moslashuv bosqichiga, ya'ni shok holatiga kirishi ehtimoli ortadi.

Umuman olganda, mazkur struktura suveren moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan rivojlanish imkoniyatlarini talab etadi va milliy qayta sug'urta tizimini tashqi qayta sug'urta infratuzilmasiga nisbatan muvozanatliroq va barqarorroq qilish zaruratini ko'rsatib beradi (2-jadval).

2-jadval. ARC joriy etilgandan keyingi qayta sug'urta tuzilmasi (taklif etilayotgan model)

Ko'rsatkichlar	Holat (ARC mavjud)	Kutilgan ta'sir
Ichki risk ushlab qolish	Oshgan	Kapital samaradorligi ortadi
An'anaviy qayta sug'urta ulushi	O'rta	Narx bosimi kamayadi
ARC (ILS, parametrik) qatlami	Mavjud	Katastrofik risklar qoplanadi
Valyuta kapitali chiqimi	Qisqargan	Kapital diversifikatsiyasi
Qayta sug'urta stavkalari	Barqaror	Volatillik pasayadi
Bozor barqarorligi	Yuqori	Tizimli chidamlilik oshadi

Mazkur jadval taklif etilayotgan gibril qayta sug'urta arxitekturasini, ya'ni an'anaviy qayta sug'urta mexanizmlarining Alternative Risk Capital (ARC) hamda Alternative Risk Transfer instrumentlari bilan uyg'unlashgan modelini aks ettiradi. Ushbu arxitektura doirasida ichki risklarni ushlab qolish darajasi bosqichma-bosqich oshirilishi, ARC qatlami orqali insurance-linked securities (ILS), parametrik hamda kollateralashtirilgan instrumentlar vositasida katastrofik risklarning kapital bozorlari ishtirokchilari zimmasiga o'tkazilishi nazarda tutiladi. Natijada, xalqaro qayta sug'urta bozorlariga to'liq qaramlik sezilarli darajada kamayib, qayta sug'urta stavkalarining barqarorlashuvi hamda valyuta resurslarining tashqariga chiqib ketishi qisqarishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Umuman olganda, mazkur gibril model qayta sug'urta bozorining faoliyatini asosan siklik tebranishlarga bog'liq bo'lgan holatdan nisbatan tizimli va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan institutsional mexanizmga aylantirish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. ARC joriy etishning makro va mikroiqtisodiy ta'siri (O'zbekiston misolida)

Ta'sir darajasi	ARC'siz	ARC bilan
Sug'urta bozori barqarorligi	Past-o'rta	Yuqori
Davlat budjetiga risk	Yuqori	Kamaygan
Katastrofik hodisalarga tayyorgarlik	Cheklangan	Institutsional
Sug'urta kompaniyalari salohiyati	Cheklangan	Kengaytirilgan
Investorlar ishtirok imkoniyati	Yo'q	Mavjud



Mazkur jadval Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlarini faqat sug'urta risklarini taqsimlash vositasi sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi. ARC joriy etilishi sharoitida makroiqtisodiy darajada katastrofik hodisalar natijasida davlat budjetiga tushadigan moliyaviy bosimning kamayishi, moliyaviy tizimning turli tashqi va ichki shoklarga nisbatan chidamliligining oshishi hamda kapital resurslarining ichki moliya bozorida saqlanib qolishi uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi.

Mikroiqtisodiy darajada esa ARC mexanizmlarining joriy etilishi sug'urta kompaniyalarining yirik va murakkab risklarni qabul qilish salohiyatini kengaytiradi, shuningdek kapital bozori ishtirokchilari va investorlar uchun yangi, diversifikatsiyalangan moliyaviy aktivlar sinfiga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, ARC instrumentlari sug'urta va moliya tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlovchi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi (4-jadval).

4-jadval. Jahon tajribasi bilan qiyos

Mamlakat	ARC instrument	ARC instrument
AQSh	Cat bonds	Bozor shoklariga chidamlilik
Yaponiya	Parametric ILS	Zilzila risklarini davlatdan chiqarish
Meksika	Sovereign Cat Bond	Davlat budjeti himoyasi
Yevropa	Collateralised Re	Narx barqarorligi

Mazkur holat Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. ARC mexanizmlari sug'urta sektorida shakllanadigan risklarni kapital bozorlari orqali moliya bozori ishtirokchilariga uzatish imkonini berib, sug'urta sektori va moliya bozori o'rtasida institutsional va moliyaviy integratsiyani ta'minlovchi bog'lovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi (5-jadval).

5-jadval. ARC joriy etishning makro va mikroiqtisodiy ta'siri (O'zbekiston misolida)

Bosqich	Asosiy instrument	Regulyator harakati	Kutilgan natija
1-bosqich	Parametrik qayta sug'urta	Sandbox joriy etish	Tizimni sinovdan o'tkazish
2-bosqich	Kollateralashtirilgan qayta sug'urta	Qonunchilikka o'zgartish	Ichki kapital oshishi
3-bosqich	ILS / SPV	Kapital bozori integratsiyasi	Barqaror ARC qatlami

Mazkur jadval nazariy yondashuvdan ko'ra, amaliy yo'naltirilgan strategik yo'l xaritasini ifodalaydi. Unda qayta sug'urta tizimining bosqichma-bosqich evolyutsiyasi, ya'ni an'anaviy reinsurance modelidan structured reinsurance mexanizmlariga, so'ngra kapital bozorlari orqali risklarni uzatishga asoslangan capital market risk transfer modeliga o'tish jarayoni konseptual ravishda aks ettirilgan. Ushbu evolyutsion yondashuv siklik va tashqi bozorlarga yuqori darajada qaram bo'lgan modeldan risklari diversifikatsiyalangan hamda institutsional jihatdan barqaror tizimga o'tishni nazarda tutadi. Natijada, mazkur model nafaqat sug'urta bozorining, balki butun moliyaviy tizimning turli iqtisodiy va moliyaviy shoklarga nisbatan chidamliligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Alternative Risk Capital (ARC) instrumentlarining O'zbekiston qayta sug'urta bozori uchun an'anaviy qayta sug'urtani samarali to'ldiruvchi strategik kapital manbai ekanini ko'rsatadi¹⁰. ARC'ni bosqichma-bosqich joriy etish, dastlab parametrik qayta sug'urta va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish orqali amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, sug'urta bozori va kapital bozorlari qonunchiligini o'zaro uyg'unlashtirish ARC instrumentlarining samarali joriy etilishi va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim shart sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta va qayta sug'urta faoliyati amaldagi normativ-huquqiy baza asosida tartibga solinib, ushbu hujjatlar sug'urta va qayta sug'urta munosabatlarining umumiy huquqiy asoslarini belgilaydi. Amaldagi qonunchilikda qayta sug'urtaga ruxsat etilgan bo'lsa-da, insurance-linked securities (ILS), sekyuritizatsiya yoki alternativ risk kapitali kabi zamonaviy instrumentlar alohida tushuncha va mexanizmlar sifatida to'liq aks ettirilmagan. Sug'urta bozorini rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda

10 Swiss Re Institute. (2023). Alternative capital in reinsurance: Market overview. Zurich.



ilg'or xalqaro amaliyotni joriy etishga qaratilgan qaror va farmonlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularda ARC mexanizmlari mustaqil moliyaviy instrument sifatida bevosita nazarda tutilmagan. Kapital bozori qonunchiligida qimmatli qog'ozlar chiqarish va muomalasi bo'yicha umumiy normalar mavjud bo'lib, sug'urta risklariga bog'langan qimmatli qog'ozlar alohida instrument sifatida ajratib ko'rsatilmagan.

Mazkur huquqiy muhit ARC instrumentlarini joriy etishda qator tizimli cheklovlarni yuzaga keltiradi. Xususan, alternativ risk kapitali tushunchasining qonunchilikda mustahkamlanmaganligi, sug'urta risklarini sekyuritizatsiya qilishning huquqiy asoslari ishlab chiqilmaganligi, SPV orqali qayta sug'urta risklarini kapital bozorlariga uzatishga imkon beruvchi normalarning mavjud emasligi hamda parametrik sug'urta va katastrofik instrumentlar uchun regulyator standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu jarayonni cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

ARC'ni O'zbekiston qayta sug'urta tizimiga integratsiya qilish uchun qonunchilik va institutsional muhitni izchil takomillashtirish zarur. Jumladan, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga¹¹ Alternative Risk Capital¹², insurance-linked securities¹³, kollateralashtirilgan qayta sug'urta va parametrik sug'urta¹⁴ tushunchalarini rasman kiritish ARC instrumentlarini sug'urta bozorining legitim va institutsional jihatdan tan olingan qismi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ARC instrumentlari uchun maxsus regulyator rejimni joriy etish, xususan vakolatli organ huzurida ARC pilot loyihalari¹⁵, parametrik qayta sug'urta va SPV orqali risk uzatish mexanizmlarini sinovdan o'tkazishga imkon beruvchi "regulyator sandbox" mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Kapital bozori qonunchiligini moslashtirish doirasida sug'urta risklariga bog'langan qimmatli qog'ozlarni alohida toifa sifatida belgilash hamda ILS chiqarish va joylashtirish tartibini aniqlashtirish zarur hisoblanadi. Shuningdek, ARC instrumentlarining samarali faoliyat yuritishi uchun milliy katastrofik risk xaritalarini ishlab chiqish va davlat–xususiy sheriklik asosida katastrofik risklarni modellashtirish platformalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son <https://lex.uz/ru/docs/-5739117>.
2. Cummins, J. D. (2014). Catastrophe risk and reinsurance: A review of the issues. Risk Management and Insurance Review.
3. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2009). Convergence of insurance and financial markets. Journal of Risk and Insurance, 76(3), 493–545.
4. Froot, K. A. (2001). The market for catastrophe risk: A clinical examination. Journal of Financial Economics, 60(2), 529–571.
5. Lane, M. (2018). Insurance-linked securities and the evolution of reinsurance markets. The Geneva Papers on Risk and Insurance.
6. Swiss Re Institute. (2023). Alternative capital in reinsurance: Market overview. Zurich.
7. Swiss Re Institute. (2022). Global reinsurance market report.
8. Guy Carpenter. (2022). The role of alternative capital in reinsurance.
9. OECD. (2021). Disaster risk financing and insurance in emerging economies. Paris.
10. OECD. (2020). Capital market instruments for risk transfer.
11. World Bank. (2019). Financial protection against natural disasters: An operational framework.
12. World Bank. (2021). Sovereign disaster risk financing and insurance program.
13. Bank for International Settlements (BIS). (2020). Macroprudential policy and the insurance sector.
14. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). (2022). Global insurance market report.
15. S&P Global Ratings. (2022). Global reinsurance outlook: Alternative capital impact.
16. Munich Re. (2023). Natural catastrophe losses worldwide.
17. World Economic Forum. (2021). Harnessing alternative capital for climate resilience.
18. Barrieu, P., & Albertini, L. (2009). The use of catastrophe bonds in risk management. Insurance: Mathematics and Economics.
19. Cummins, J. D., & Barrieu, P. (2013). Reinsurance, securitization and risk transfer. Journal of Risk and Insurance.
20. Niehaus, G., & Mann, S. V. (1992). The trading of underwriting risk. Journal of Risk and Insurance.
21. Swiss Re. (2020). Insurance-linked securities market update.
22. IMF. (2021). Climate risk and financial stability.
23. World Bank & GFDRR. (2020). Catastrophe risk modeling for developing countries.

11 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son <https://lex.uz/ru/docs/-5739117>.

12 International Association of Insurance Supervisors (IAIS). (2022). Global insurance market report.

13 Cummins, J.D., Barrieu, P. (2013). Reinsurance, securitization and risk transfer. Journal of Risk and Insurance.

14 World Bank & GFDRR. (2020). Catastrophe risk modeling for developing countries.

15 World Bank. (2019). Financial protection against natural disasters: An operational framework.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
